



# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


## Dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6 569,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan 13,5 % ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 594,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 147,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 974,8 mlrd. so'mni (11,0 % ga ko'paygan). Shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 866,2 mlrd. so'mni (15,0 % ga ko'paydi) tashkil etdi.

## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6 569,3** mlrd. so'm ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan 13,5% ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda ko'payish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,0 %** va yirik korxonalar hissasiga **9,0 %** to'g'ri keldi.




### ENG YUQORI ULUSH

Namangan viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri 44,1 % ulush bilan 2 896,0 mlrd. so'm ni tashkil etdi.

### ENG QUIYI ULUSH

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mingbuloq tumanida 2,9 % ulush bilan 191,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar –may oylari yakuniga ko'ra, 5 974,8 mlrd.so'm ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan 11,0 % ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 91,0 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Uychi (99,0 %) Kosonsoy (98,8 %), Yangiqo'rg'on (97,7 %), Chortoq (97,3 %), Mingbuloq (96,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Chust (125,2 %) To'raqo'rg'on (119,1 %) tumanlarida qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	6 569,3	113,5	594,5	147,6	5 974,8	111,0
Namangan.sh	2 896,0	112,8	222,0	124,7	2 674,0	111,9
tumanlar:						
Mingbuloq	191,2	111,3	6,0	246,6	185,2	109,4
Kosonsoy	272,0	109,9	3,3	99,1	268,8	110,0
Namangan	304,5	112,9	17,1	205,4	287,4	109,9
Norin	279,5	111,5	20,1	87,6	259,4	113,9
Pop	351,1	106,4	16,0	63,6	335,2	109,9
To'raqo'rg'on	440,1	119,1	57,7	238,0	382,4	110,7
Uychi	296,5	109,2	3,0	92,6	293,5	109,4
Uchqo'rg'on	261,8	113,5	14,9	102,8	246,8	114,3
Chortoq	267,7	111,0	7,1	99,6	260,6	111,3
Chust	697,7	125,2	220,2	208,8	477,6	105,7
Yangiqo'rg'on	311,2	111,8	7,2	88,9	304,0	112,5

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **47,6 %** ga ko'paygan va **594,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **9,0 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **5 974,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **11,0 %** ga ko'paygan. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,0 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi, (99,0 %), Kosonsoy (98,8 %), va Yangiqo'rg'on ( 97,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,0% ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (31,6 %), To'raqo'rg'on (13,1 %), Namangan sh. (7,7 %) kuzatildi.



**NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON  
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 236,0** ming so'm (2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan 11,0 % ga ko'paygan). Chust (122,7 %), To'raqo'rg'on (116,2%), Uchqo'rg'on (111,3 %) va Namangan(110,4%) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida ko'payish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri ( 4 369,3 ming so'm), Chust (2 536,2 ming so'm) va To'raqo'rg'on (1 879,1 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Namangan viloyati	2 236,0	111,0
Namangan sh.	4 369,3	110,0
tumanlar:		
Mingbuloq	1 453,6	108,9
Kosonsoy	1 246,2	107,3
Namangan	1 653,1	110,4
Norin	1 647,7	109,4
Pop	1 544,2	104,3
To'raqo'rg'on	1 879,1	116,2
Uychi	1 331,3	106,5
Uchqo'rg'on	1 466,5	111,3
Chortoq	1 296,4	108,8
Chust	2 536,2	122,7
Yangiqo'rg'on	1 369,8	109,4



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,7 %** ni tashkil etib, **109,1** mlrd. so‘mga yetdi va 2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan **14,2 %** ga ko‘paygan. Bunda jami savdo aylanmasining **71,4 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	109,1	114,2	15,9	269,5	77,9	103,0
Namangan.sh	62,1	114,3	11,5	195,9	43,6	103,9
tumanlar:						
Mingbuloq	2,7	103,4	0,0	0,0	2,0	101,1
Kosonsoy	2,6	104,5	0,0	0,0	1,9	103,3
Namangan	7,6	127,5	1,5	0,0	5,3	100,5
Norin	2,2	109,7	0,0	0,0	1,5	109,0
Pop	5,7	102,0	0,0	0,0	4,9	100,9
To‘raqo‘rg‘on	3,3	105,9	0,0	0,0	2,6	105,0
Uychi	1,8	104,1	0,0	0,0	1,0	102,2
Uchqo‘rg‘on	3,1	104,8	0,0	0,0	2,3	102,5
Chortoq	3,0	103,9	0,0	0,0	2,2	101,4
Chust	12,9	130,6	2,9	0,0	9,1	100,8
Yangiqo‘rg‘on	2,2	105,5	0,0	0,0	1,4	103,4



## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2900,1** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan **22,4** % ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **663,3** mlrd. so'mni (**39,8** % ga ko'paygan), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 236,8** mlrd. so'mni (**18,1** % ga ko'paygan).


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Kosonsoy (102,2m), Pop(48,6m), Namangan (46,5m) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari, Namangan (153,9 %), Kosonsoy(147,8 %), Uchqo'rg'on (140,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	2900,1	122,4	663,3	139,8	2236,8	118,1
Namangan sh. tumanlar:	1903,2	129,7	366,7	270,9	1536,5	115,3
Mingbuloq	29,8	121,2	0,03	105,1	29,7	121,2
Kosonsoy	96,0	147,8	12,7	102,2m	83,3	128,6
Namangan	89,6	153,9	26,3	46,5m	63,3	109,8
Norin	108,4	135,7	31,7	177,7	76,7	123,7
Pop	93,7	136,0	23,5	48,6m	70,3	102,7
To'raqo'rg'on	139,0	78,3	84,7	68,2	54,3	102,1
Uychi	137,4	101,9	19,4	26,1	118,0	194,4
Uchqo'rg'on	65,9	140,3	43,3	150,1	22,6	124,7
Chortoq	84,6	100,6	0,0	0,0	84,6	132,4
Chust	78,0	83,1	55,0	75,8	23,0	108,0
Yangiqo'rg'on	74,5	111,2	0,0	0,0	74,5	111,2

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar- may oylari yakuniga ko'ra, **2 236,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan **18,1** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **77,1** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo'rg'on , Chortoq, (100,0 %), Mingbuloq, (99,9 %), tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Chust (29,5 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi  
boshqarmasi  
Tel : (69)-211-72-00